

TASVIRIY SAN'ATDA GRIZAYLDA ISHLASH METODI

Toxirjon Oltmishev

JDPI katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7263842>

Annotasiya. O'quv jarayonini bosqichlarga ajratish bilan, tus nisbatlarini o'rGANISH muammolarining yechimini topish mumkin: rangtasvir mashg'ulotlaridagi birinchi bosqich - bu kartinadagi tuslar nisbatini aniqlash va ishlov berish, ya'ni berilgan vazifani "grizayl" texnikasida bajarish hisoblanadi. Shuning uchun o'quv jarayonida talabalarga grizayl texnikasida ishlashni o'rgatish maqsadida bu mashg'ulotlar o'quv dasturlariga kiritilib, vazifalarni bajarish talabalar uchun shart qilib belgilab qo'yilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, rangtasvir, perspektiva, grizayl, portret, natyurmort, manzara.

МЕТОДИКА РАБОТЫ С ГРИЗЕЙЛЕМ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ.

Аннотация. Исследование цветовых соотношений можно решить, разделив процесс обучения на этапы. Поэтому для обучения студентов работе с приемами гризайль в процессе обучения эти уроки включаются в учебную программу, а выполнение этих заданий является условием для студентов. Grisaille — это латинское слово, означающее «серый» и использующее широкий диапазон оттенков серого между белым и черным.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, живопись, перспектива, гризайль, портрет, натюрморт, пейзаж.

THE METHOD OF WORKING WITH GRISAIL IN FINE ARTS.

Annotation. The study of color ratios can be solved by dividing the learning process into stages. Therefore, in order to teach students to work with grizzly techniques in the learning process, these lessons are included in the curriculum, and the performance of these tasks is a condition for students. Grisaille is the Latin word for "gray" and uses a wide range of shades of gray between white and black.

Keywords: Fine art, painting, perspective, grizzly, portrait, still life, landscape.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limgardoshlik islohi qilishning ustuvor yo'nalişlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limgardoshlik modernizatsiya qilish, ilg'or ta'limgardoshlik texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida, "...talaba-yoshlar ta'limgardoshlik tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan, kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish" -masalalari dolzarb masala sifatida qo'yilgan.

Qadim zamonlardan odamlar davlatchilik paydo bo'lgandan boshlab moddiy va ma'naviy boylikka ega bo'lishga harakat qilib kelishadi. Buning uchun bir-birlari bilan urushadilar davlatlariga bosqin uyushtiradilar va shu asnodda begonalar mol-mulkiga ega chiqadilar. Mana shunday mulklar orasida tasviriy san'at asarlari ham mayjud bo'lib ular tarixga va go'zallikka

guvohdirlar. Dunyoni go'zallik qutqaradi degan jumla bor, bu go'zallik meni o'yashimcha rangtasvir asarlari ortida yashiringandek va unga yo'l esa qalamtasvirdan keyingi bosqichda turuvchi "Grizayl" orqali boriladi. Grizayl rangtasvirga kiradigan eshik hisoblanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tusni aniqlashda yo'l qo'yilgan xato noto'g'ri rang berishga olib keladi, shuning uchun tusni to'g'ri idrok qilish rassom uchun juda muhim. Shundan ham ko'rinish turibdiki rang va tus o'zaro bir-biriga bog'liq tushunchalardir. Bo'lg'usi rassomlar uchun yana shuni bilib qo'yish foydaliki, yorug' kunda mashq qilgan ko'z, rangning 180 tusini, to'qligining 10 pog'onasini farqlay oladi.

Tafakkuri kamol topgan inson ko'zi rang tuslardan taxminan 360 tasini farqlay oladi. Ranglar axromatik va xromatik ranglarga bo'linadi. Axromatik (oq va qora) ranglar faqat o'zaro tus nisbatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Xromatik ranglar deganda barcha rangli bo'yoqlar tushuniladi. Bu ranglarning yorqinligi axromatik rang bo'lgan kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi. Agar bir xromatik rangga kulrang qo'shilsa, u xira tortib, och-to'qligi o'zgaradi. Ranglar iliq yoki sovuq ranglar bo'lishi mumkin. Shuningdek natyurmort ishslash jarayonida yana qarama-qarshi ranglarga ham duch kelamiz.

Har qanday axromatik rang to'q ranglar orasida ocharib ko'rinsa, och ranglar orasida esa to'qlashib ko'rindi. Bu tus kontrastlari deyiladi. Yonidagi rang ta'sirida rang tusi o'zgarishi, rang kontrasti deyiladi. Xromatik rangning yorqinligi axromatik rang bo'lgan kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi. Yorqinlik xromatik va axromatik ranglarga tegishli sifatdir. Uni oqishlik bilan adashtirmaslik kerak (narsalar, buyumlarning rang sifatlari).

Odatda musavvirlar yorqin bo'yoqlar nisbatini tuslar nisbati deb atashadi. Asarda aks etgan yorqinlik bilan rang tuslarini, yorug - soya bilan ranglar tizimini adashtirmaslik kerak. Tasvir yorqin tuslarda chizilgan deganda avvalo yorqin bo'yoqlar nisbati ko'zda tutiladi. Axromatik ranglar: ya'ni oq, kulrang va qora ranglar faqat yorqinlik bilan tavsiflanadi. Yorqinlik bo'yicha farqlar ba'zi ranglarning ochroq, ba'zilarining esa to'qroqligidadir. Buyum shakli sirtidagi ranglarning har xil nozik turlanishi, tus o'zgarishlari natijasida ularning hajmini kuzatamiz, bizdan qanday darajadagi uzoqlikda joylashganligini his qilamiz va masofa perspektiva haqidagi tushunchaga ega bo'lamiz. Buyumlardagi tuslarni ko'rish va ajratish ranglarni aniqlashga qaraganda ancha qiyinroq, tuslarni yaxshi ajratishga o'rgangan rassom xilma - xil ranglar, ularning och-to'qlik darajada turlanishini ko'ra olish, his qilishda qiyalmaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Shubxasiz, realistik rangtasvirda tus hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Tuslarni o'rganish uchun boshlovchi rassom, avvalo bir xil ranglar (grizayl)da ranglavhalar bajarishni mashq qilishi kerak. Ranglavha (fransuzcha etude - o'rganish; mehnat, naturadan bajarilgan ma'nosida) - bu rassom o'zining kasbiy ko'nikmalarini takomillashtiradigan, tasvirni jozibali, haqqoni tasvirlash mashqi hisoblanadi. Bu mashqlar yosh rassomlarning rangda ishslashdan oldindi tayyorgarlik bosqichi bo'lib, rangtasvir texnikasini egallahda juda katta foyda beradi. O'quv jarayonini bochqichlarga ajratish bilan tus nisbatlarini o'rganish muammolarning yechimini topish mumkin: rangtasvir mashg'ulotlaridagi birinchi bosqich - bu kartinadagi tuslar nisbatini aniqlash va ishlov berish, ya'ni berilgan vazifani "grizayl" texnikasida bajarish hisoblanadi. Shuning uchun o'quv jarayonida talabalarga grizayl texnikasida ishslashni o'rgatish

maqsadida bu mashg'ulotlar o'quv dasturlariga kiritilib, bu vazifalarni bajarish talabalar uchun shart qilib belgilab qo'yilgan.

Grizayl (Grisaille) - lotincha "griz" ya'ni kulrang deb tarjima qilinib, oq-qora ranglar oralig'idagi kulrang tuslarning keng tizimidan foydalaniladi. Grizayl barelef va goreleflarni eslatadigan, moybo'yoq, akvarel, tushni oq ranglar bilan qo'shib yoki umuman qo'shmasdan bir xil rangda mo'yqalamda bajarilgan kartinalarga aytildi. Bu xildagi ishlar oppoq haykallar ko'rinishini eslatadi, lekin shu bilan birgalikda tushayotgan yorug'lik, atrofidagi buyumlar ta'sirida har xil ranglar tovlanishlarini hisobga olgan holda, rassom palitrasida oq, qora ranglardan tashqari ko'k, jigarrang, qizil, sariq ranglar gammasi ham bo'lishi kerakligi tavsiya etiladi.

Grizayl – Bu texnika bitta bo'yoq bilan qalamtasvir ishlash demakdir. Aynan mana shu uslub qalamtasvir bilan rangtasvirni birlashtiradi. Odam boshi tasvirini ishlashda umumiy qoidalar bilan birgalikda o'tkir, ingichka qalam va keng yapaloq mo'yqalam shaklni turlicha ifodalashi mumkinligini kuzatamiz.

Portret qalamda ishlanganda shaklni chiziqlar yordamida qurib, maqsadga erishiladi. Mo'yqalamda esa yirik shakl ifodasidan mayda detal ishlanmasiga o'tiladi. Bo'rtiqlik ifodasini yaxshi sezmaydigan tajribasiz rassom uchun mo'yqalamda tasvir ishlash odatiy, yuzaki shtrix berishdan foydalidir.

Mo'yqalamda ishlashning afzallik tomonlaridan biri – lessirovka usulidir. Moybo'yoqda ishlangan qalamtasvir odatda shu usul bilan o'z yakuniga yetkaziladi. Lessirovkada qurigan bo'yoq ustidan shaffof yoki yarim shaffof qatlam berib keskin ishlangan detallar yumshatilib, aniq olinmagan yorug'-soya munosabatini to'g'rilash mumkin. Grizayl uchun to'q va iliqroq rang tanlangani ma'qul (masalan: umbra, mars, vandik). Boshqa bo'yoqlar, aytaylik qora, ko'k, oq bo'yoq aralashmasida sovuq, o'lik tusni beradi. Bu esa inson chehrasining iliqligiga mos kelmaydi. Moybo'yoqda portret rangtasvirini ishlashdan oldin tus yechimini hal etadigan bir nechta mashqlar bajarish foydalidir.

Bu mashg'ulotni maqsadi – odam boshining shakl ifodasini yorug'-soya munosabatlarda o'rghanishdir. Shaklni mo'yqalam bilan surtmalarda topilishi qalamdagidan farq qiladi. Qalamtasvida shakl konstruksiya asosida o'rGANilib, rang xarakteristikasi shartli ravishda olinadi. Shakl ba'zan bir chiziqdida, fonsiz ham ifodalanaveradi. Mo'yqalamda shakl fon bilan birgalikda, muhitdan ajralmagan holda tasvirlanadi. Grizaylda ishlash uchun odatda 2 ta Bo'yoq olinadi: tabiiy umbra va oq «Tabiiy umbra» o'rniga umbraning boshqa turlari yoki «mars jigarrang» bo'yog'ini ham ishlatish mumkin.

Grizayl haqida yuqorida fikrlarni o'qib o'rGANIB chiqib, o'z fikrlarimni bildirish istagi paydo bo'ldi.

Grizaylda ishlashning maqsadi;

Hammamizga ma'lumki yosh rassomlar rasm ishlashni o'rGANISHNI eng avvalo grafitli oddiy qora qalamda ishlashni boshlaydilar, qora qalamning yumshoq, qattiq va o'rtacha yumshoq turlari mavjud; Qalamlar griffelning qattiqligi bilan odatda ko'rsatilgan qalam va harflar bilan belgilanadi **M**. (yoki **B**.- ingliz tilidan. Qorong'ulik) - yumshoq va **T** (yoki **H** - ingliz tilidan. Qattiqlik) - qattiq. Standart (stirimli yumshoq) qalam kombinasiyalardan tashqari **T_m** va **H_b** xatni bildiradi **F** (ingliz tilidan. To'g'ri nuqta). Yumshoqlik darajasi qalamlar xatni belgilaydi **M**. (yumshoq) yoki **2m**, **Zm** oldin katta harf **M** katta yumshoqlikni bildiradi qalam. Qattiq qalamlar xatni belgilaydi **T** (qattiq) **2 T** ko'proq, **Zt** ko'proq **2T**, va hokazo.

Yevropa AQSH va Rossiyadan farqli o'laroq, qattiqlikni ko'rsatish uchun raqamli miqyosda ishlataladi. 1-jadval

Qattiqlik jadvali

1-jadval

Risola	AQSH	Boshqa	Rossiya
	#1	B.	M.
	#2	Hb.	Tm
	#2 1/2	F.	-
	#3	H.	T.
	#4	2s.	2t.

Eng qattiq, o'rta, yumshoq

2-jadval



Qalam odatda o'rta yumshoqlikdan boshlanadi -**Tm** yoki **M** - va keyin yumshoq sonlarga o'tiladi, **B** dan **12b** gacha. Qalamlar qattiq-yumshoq turlarga qarab bari-bir bir xil och va to'q kulrang iz qoldiradi. (2- jadval). So'zimiz isboti sifatida quyida qalamtasvirda ishlangan ijodiy ishlarimdan namunalar keltirdim (1-2-3 rasmlar). Ko'rib turganingizdek bir xil tusdagi och va to'q kulrangdan iborat. Bu fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz lozimki, qalamtasvirda natyurmort, portret yoki manzara ishlash jarayonida ko'zimiz faqat kulrang, qoramtil tuslarni ko'radi va shu ranglarga ko'nikma hosil qiladi xolos.

MUHOKAMA

Qalamtasvirda ishlash bilan bir qatorda rang tasvirda ishlashni ham o'rganish talab etiladi, buning uchun biz rangtasvirda ishlashdan avval, Grizaylda boshlaymiz.

Grizayl (Grisaille) - lotincha "griz" ya'ni kulrang deb tarjima qilinsa nega yuqoridaq o'quv qo'llanmalarda kulrangdan boshqa ranglarda ham ishlashni grizayl deb atashganligi biroz noqulay. Agar kengroq o'ylab ko'rilsa aynan kulrangni tanlanishi bu bejizga emas, chunki qalamtasvirda ishlash jarayonida talaba yoki o'quvchi faqat grafit qalamda ish olib boradi va ular qog'oz sathida kulrang va qoramtil tusni ko'radi xolos. Grizayl qalamtasvir bilan rangtasvir o'rtasidagi ko'priq hisoblanib, qalamtasvirning tugashi va rangtasvirning boshlanishi hisoblanadi (4-5-6-rasmlar) bunga aniq misol bo'la oladi.

1-rasm.



2-rasm.



3-rasm.





4-rasm. Qalamtasvir



5-rasm. Grizayl



6-rasm. Rangtasvir

XULOSA

Xulosa shuki amaliy mashg'ulotlarda mavzu berilib grizaylda ishlash ko'rsatib o'tilgan bo'lsa natyurmort, manzara yoki portret bo'lishidan qatiy nazar faqat axromatik rangda ishslash tavsiya etiladi. Guvohi bo'lганmиздек, xromatik ranglarda ishlashga ham ruxsat berilganligiga, ko'k, jigarrang, qizil va boshqa ranglar, grizayl so'zining ma'nosi kulrang bo'lsa xromatik ranglarda ishlash mutloqo noto'g'ri deb hisoblayman. Hammamizga ma'lumki axromatik rang deganda oq bilan qora rang orasidagi barcha tuslanishlar tushuniladi. Grizaylda ishlash o'quvchi yoki talabaga akvarel bo'yog'ida ishlashning ilk ko'nikmalarini shakillanishiga yordam beradi va mo'yqalam va akvarel bo'yog'i bilan tanishtiradi. Kelajakda ranlar orqali asrlarga tatigulik tasviriy san'at asarlarining paydo bo'lishiga tamal toshini qo'yadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
2. Rangtasvir (grizaylda rangtasvir ishslash) Muallif:Sultanov X. Toshkent-2014.
3. Internet manbasi. <https://gigafox.ru/uz/rody/grafit-vidy-grafitovyh-karandashei-kakie-byvayut-karandashi-dlya-risovaniya/>.
4. T.Qo'ziyev; A.Egamov "Rangtasvir" (5-9 sinflar uchun) Toshkent-2008.
5. R.Rajabov, X.Sultanov. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. (o'quv qo'llanma) Toshkent- 2008.
6. S.F. Abdirasilov, B. Azimova Rangtasvir. T. "Musiqa" nashriyoti -2011.
7. Raskin, Dj. Leksii ob iskusstve / Dj. Raskin; per. s angl. P. Kogana; pod red. Ye. Kononenko. — M., 2006.
8. Internet manbasi. [https://gigafox.ru/uz/rody/grafit-vidy-grafitovyh-karandashei-kakie-byvayut-karandashi-dlya-risovaniya/.\(1-2- betlar\).](https://gigafox.ru/uz/rody/grafit-vidy-grafitovyh-karandashei-kakie-byvayut-karandashi-dlya-risovaniya/.(1-2- betlar).)